

## MATEMATIKADAN TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Akmalova Nargiza Abbas qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti, Fizika-matematika fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10541247>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematik to‘garak, o‘quvchilarning matematik bilimlarini oshirishda va matematikaga qiziqtirishda to‘garakning ahamiyati, matematik to‘garak jarayonida qanday usul hamda masalalardan foydalanish kerakligi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** matematika, matematik to‘garak, masala, M.B.Balk.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЗАНЯТИЙ В КРУЖКЕ ПО МАТЕМАТИКЕ

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о математическом кружке, значении кружка в повышении математических знаний учащихся и интереса к математике, какие методы и задачи следует использовать в процессе математического кружка.

**Ключевые слова:** математика, математический кружок, задача, М.Б.Балк.

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF MATHEMATICS CIRCLE TRAINING

**Abstract:** This article talks about the mathematical circle, the importance of the circle in increasing students' mathematical knowledge and interest in mathematics, what methods and problems should be used in the process of the mathematical circle.

**Key words:** mathematics, mathematical club, problem, M.B. Balk.

## KIRISH

Matematika fanlar shohidir. Hozirgi kunda dunyo miqyosida ta’lim oluvchilarining bilim, ko‘nikma, malaka egallashlarini takomillashtirish, matematik qobiliyatlarini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish, uni insonparvarlashtirish, uzluksizligi va uzviyligi, rivojlantiruvchi hamda ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarini ta’minlash, ularning ijodkorligini oshirish vazifalari yetakchilik qilmoqda.

Matematika darsi deyarli barcha maktablarda o‘tiladi. Ba’zan shunday holatlar kuzatiladiki, o‘quvchilar matematika darsida zerikib qolashadi va buning natijasida o‘zlashtirish ko‘rsatgichi pasayishi mumkin. O‘quvchilarni darsga qiziqtirish va matematik savodxonliklarini oshirish uchun matematika to‘garaklari ayni muddaodir.

## ASOSIY QISM

Matematik to‘garak— har bir maktabda tashkil etilishi zarur bo‘lgan tatbirlardan asosiydir. To‘garak mashg‘ulotlari o‘quvchilarni matematikaga qiziqtirish, bilimni chuqurlashtirish va kengaytirish sinfda paydo bo‘lgan savollarga atroflicha javob berish, qiyin masalalarni ko‘pchilik bo‘lib muhokama qilish, olimpiadalarga tayyorlanish, konferensiya va kechalarga tayyorgarlik ko‘rish kabi vazifalarni bajarish uchun uziga xos amaliyotdir.

Matematika to‘garagining muvaffaqiyatli ishlashida o‘quvchilarni to‘garak ishiga jalb qilishda, qiziqtirishda dastlabki mashg‘ulotlarning roli katta. Dastlabki to‘garak mashg‘ulotlaridanoq o‘quvchilarni matematika faniga qiziqtirish kerak. Past o‘zlashtiruvchi va matematika faniga qiziqishi sust bo‘lgan o‘quvchilarga alohida yondashgan holda qiziqarli matematik savollar va hayotiy masalardan ko‘proq o‘rgatish zarur. Zero, hayotiy masalalar

yordamida o‘quvchilar matematika fanini hayotlari davomida qanchalik kerak ekanligini tushunib yetishadi va fanga nisbatan qiziqishlari ortadi.

Ammo o‘quvchilarni faqatgina qiziqarli matematik masalalar bilangina cheklab qo‘yish kerak emas. M.B.Balk aytganidek, dastlabki mashg‘ulotlarning ko‘pchilik qismini qiziqarli matematikaga ajratib yuborilsa ham yaxshi bo‘lmaydi, chunki keyingi mashg‘ulotlarda qiziqarli matematikadan boshqa materiallarga qiziqish kamayib, ayrim o‘quvchilar to‘garakdan chiqib ketishlari mumkin. Shuning uchun dastlabki mashg‘ulotlarda ham, keyingi mashg‘ulotlarda ham qiziqarli materiallar hajm jihatidan baravar bo‘lishi ma‘quldir. O‘qituvchilar to‘garak mashg‘ulotlari uchun ham aniq reja tuzib olishi va bu rejada qiziqarli masalalar, olimpiada masalalari, hayotiy masalalar va albatta, matematikaga oid ma‘lumotlarni teng taqsimlashi lozim.

Matematik to‘garaklarda o‘quvchilarga berilishi mumkin bo‘lgan qiziqarli masalalardan namunalari:

**Masala:** Qonuniyatni aniqlab, x va y ni toping.



$$73-46=27 \quad 46-19=27$$

$$11-09=2 \quad 09-07=2$$

$$52-42=10 \quad 42-32=10$$


$$99-50=49 \quad 50-01=49$$

$$97-82=15 \quad 82-67=15$$

$$15-48=-33 \quad 48-xy=-33$$

Javob:  $x=8, y=1$

**Masala:** Qoniyatni aniqlab, ? o‘rnidagi sonni toping.



$$5 + 9 = 7 * 2$$

$$12 + 6 = 3 * ?$$

$$? = 6$$

\*Bunday turdagi masalalar o‘quvchilarni to‘garakka jalb qilishni oshirishga yordam beradi.

### XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, umumta’lim maktablarida o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta egallashlari uchun fan to‘garaklarini o‘rni beqiyosdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 3.Б.Ахрарова “Талабаларни илмий–ижодий фаолиятга йўналтиришда фан тўгаракларининг ўрни” //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. NUU Conference 1. – С. 315-317.
- A.Nurmetov, I.Qodirov”Matematikadan sinfdan tashqari va fakultativ mashg‘ulotlar”.Tashkent-1980.
- A. O. Abdullayev. NUU Conference 3. “Matematika to‘garagini tashkil qilish va o‘quvchilar matematik qobiliyatlarini rivojlantirishda ko‘zda tutiladigan parametrlar” Toshkent-2023.
- A.S.Yunusov va b.”Qiziqarli matematika va olimpiada masalalari”.Toshkent,2007.-B.722.